

Yondosh mavzu:  
ishchi.



Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz  
bo'linma, qoldiq.



1. Tokar maxsus dastgohda metall detallarni yo'nib, tayyor detallarni har bir qutiga 4 tadan joylayapti. Nechta quti kerak bo'ladi?



Nechta detal ortib qoladi? 2 ta qutiga qoldiqsiz joylash uchun detallar nechta bo'lishi kerak? 3 ta qutiga joylash uchun-chi?

#### Qoldiqli bo'lish algoritmi

- 1) Bo'linuvchidagi bo'luvchiga bo'linadigan eng katta sonni toping.
- 2) Bu sonni bo'luvchiga bo'lgandagi bo'linmani toping.
- 3) Bo'linuvchidan ana shu topilgan sonning ayirmasi qoldiq bo'ladi.

Masalan: 31 ni 8 ga bo'lamiz.



- 1) 31 dan kichik bo'lgan va 8 ga bo'linadigan eng katta sonni topamiz. Bu – 24 dir.
- 2) Uni 8 ga bo'lamiz:  $24 : 8 = 3$
- 3) Qoldiqni topamiz:  $31 - 24 = 7$   
 $31 : 8 = 3 \text{ (qoldiq} - 7\text{)}$

2. Quyidagi sonlarni toping:

- a) 19 dan katta bo'limgan, 3 ga bo'linadigan;
- b) 28 dan katta bo'limgan, 5 ga bo'linadigan;
- c) 16 dan katta bo'limgan, 7 ga bo'linadigan;
- d) 76 dan katta bo'limgan, 9 ga bo'linadigan?

Har safar qaysi son qoldiq qolyapti?

### 43. Qoldiqli bo'lish



3. Qoldiqli bo'linadigan sonni yozib oling. Sababini tushuntiring.

$73 : 8$

$96 : 9$

$58 : 7$

$64 : 6$

$21 : 5$



4. Qoldiqli bo'lishni teskari amal bilan – bo'lувchini bo'linmaga ko'paytirib, qoldiqni qo'shish bilan tekshirib ko'rsak bo'ladi. Namunaga qarab, bo'lishni tekshirishni o'rganib oling.



$21 : 4 = 5 \text{ (qoldiq 1)}$



$4 \cdot 5 + 1 = 21$

Qoldiqli bo'lishni bajarib, keyin uni tekshirib ko'ring.

$65 : 7$

$39 : 9$

$62 : 6$



5. Ifoda tuzib, qiymatini hisoblang.

a) Bitta o'yinchoqni yig'ish uchun 6 ta vint kerak.

Ustaning qutisida 50 ta vint bor. 3 ta o'yinchoqni yig'gandan keyin nechta vint qoladi?



b) Javonga bitta kichik tokcha o'rnatish uchun 4 ta, katta tokcha o'rnatish uchun esa 7 ta burama mix kerak. 4 ta kichik, 2 ta katta tokcha o'rnatish uchun nechta burama mix kerak?



6. Hisoblang. Maxsus dastgohda metall yoki yog'ochdan detallar qirqadigan ustani nima deymiz?

**A**  $490 : 70 \cdot 25$

**L**  $20 \cdot 30 - 479$

**V**  $8100 : 9 - 153$

**O**  $3 \cdot 500 + 151$

**E**  $600 : 30 \cdot 71$

**R**  $40 \cdot 4 - 28$

**Z**  $420 : 7 + 274$

**F**  $40 \cdot 90 : 60$

**I**  $5600 : 80 \cdot 40$

**CH**  $60 \cdot 80 : 400$

60	132	1420	334	155	121	1651	747	12	2800
----	-----	------	-----	-----	-----	------	-----	----	------




7. Amallar tartibiga rioya qilib, misollarni yechsangiz, kasblardan birining nomi kelib chiqadi.



$$920 \cdot 750 - 400 \cdot (450 : 90 + 789) + 62 \cdot (225 + 175)$$

**N** 24 800**L** 400**I** 794**R** 342 400**G** 603 150**Ch** 5**A** 317 600**A** 627 950

8. Metall yoyuvchi usta metallni yupqa qilib yoydi. Yoyilgan metallning yuzini toping. Qaysi birining yuzi kattaroq?



9. Kub yoyilmasini yelimlab, kub hosil qilindi uning ko'rinishi qanday bo'ladi?



10. Qoldiqli bo'lishni bajarib, keyin tekshirib ko'ring.

$$48 : 7$$

$$95 : 9$$

$$37 : 6$$

$$64 : 8$$

$$71 : 7$$

$$32 : 5$$



11. Katta temirdan 8 ta, kichkinasidan esa 5 ta kam detal qirqib olish mumkin. 40 ta katta va 27 ta kichkina temir bo'ladigan jami nechta detal qirqib olish mumkin?